

O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA QISHLOQ INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASH HOLATI: TARIXIY TAHLIL (2009–2020-YILLAR)

Kadirova Yakitjan Buvabayevna

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

xqodirova@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0005-0206-1411>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2009–2020-yillar oralig'ida O'zbekistonning janubiy hududlari (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari) misolida qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonlari tarixiy tahlil etilgan. Tadqiqotda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish, yo'l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash borasidagi davlat dasturlarining ijrosi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, infratuzilmaning yangilanishi aholi turmush darajasi va bandligiga ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri xususida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq infratuzilmasi, namunaviy loyihalar, modernizatsiya, Surxondaryo, Qashqadaryo, uy-joy qurilishi, yo'l-transport kommunikatsiyasi, ijtimoiy taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье представлен исторический анализ процессов модернизации сельской инфраструктуры в 2009–2020 годах на примере южных регионов Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкадарьинская области). В исследовании на основе статистических данных освещается реализация государственных программ по строительству жилья по типовым проектам, развитию дорожно-транспортных коммуникаций и улучшению инженерно-коммуникационных сетей в сельской местности. Также представлены выводы о социально-экономическом влиянии обновления инфраструктуры на уровень жизни и занятость населения.

Ключевые слова: Сельская инфраструктура, типовые проекты,

модернизация, Сурхандарья, Кашкадарья, жилищное строительство, дорожно-транспортные коммуникации, социальное развитие.

Abstract: This article provides a historical analysis of the modernization processes of rural infrastructure between 2009 and 2020, focusing on the southern regions of Uzbekistan (Surkhondaryo and Kashkadarya regions). Based on statistical data, the study examines the implementation of state programs for the construction of housing based on standard designs, the development of road and transport communications, and the improvement of engineering and communication networks in rural areas. Furthermore, conclusions are drawn regarding the socio-economic impact of infrastructure renewal on the living standards and employment of the population.

Keywords: Rural infrastructure, standard designs, modernization, Surkhondaryo, Kashkadarya, housing construction, road and transport communication, social development.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Qishloq joylarini obodonlashtirish va ularning infratuzilmasini tubdan yangilash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisining qariyb yarmi qishloq joylarda istiqomat qilishini inobatga olsak, qishloq infratuzilmasini zamon talablari darajasiga ko'tarish nafaqat iqtisodiy, balki muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy vazifadir. O'rganilayotgan davrda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy — joylar qurish harakati qishloq hayotining darajasini va aholining turmush sharoitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan

islohotlarning eng oliy bosqichi bo'ldi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2009-yil 3-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq joylarda uy — joy qurilishi, ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora — tadbirlar to'g'risida" gi qarori asosida belgilangan, qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylar qurish borasidagi harakatlar ancha jonlandi[1].

Yakka tartibda qurilayotgan uy — joylar loyihalarining qulaylik nuqtai nazaridan qaytadan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari maydonini olti sotix qilib belgilash to'g'risida qaror qabul qilingach, namunaviy uylarni olishga aholining qiziqishi yanada ortdi.

2010-yili Respublikada 159 ta tumandagi 223 ta qishloq massivida 6800 ta ana shunday uy — joy barpo etilib egalariga topshirildi[1]. Ushbu maqsadlarga qariyb 430 milliard so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar, jumladan 250 milliard so'mdan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. Bu mablag' 2009-yildagiga nisbatan 9 barobar ko'p bo'ldi[2].

Qishloqlarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi Dasturi doirasida 2009 — 2014-yillarda Respublikaning 159 qishloq tumanida 900 dan ziyod yangi qishloq uy — joy massivlari barpo etilib, namunaviy loyihalar asosida maydoni 4.5 million kvadrat metr bo'lgan 33,5 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy — joylar qurilib, foydalanishga topshirildi.

2013-yilgi "Obod turmush yili" davlat dasturiga ko'ra Surxondaryo viloyatida namunaviy loyihalar asosida 810 ta turar joy qurilib ishga tushirildi. Uy-joy qurilishining kengayishi qurilish tashkilotlarini sifatli materiallar bilan ta'minlashni taqozo etadi. Ana shu talabni hisobga olgan Uzun tumanidagi "Uzun Ahror servis" xususiy korxonasi tomonidan To'palang daryosi bo'yida tosh va qum saralash korxonasi ishga tushirildi. Buning uchun bankning 250 million so'mlik imtiyozli kreditidan samarali foydalanildi. Korxonada soatiga 15 kub tosh va qum saralanib, buyurtmachilarga yetkazib berildi[3].

Qurilish korxonalarining asosiy qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojining 70 foizi o'z tarkibiga 100 dan ortiq korxonani birlashtirgan

"O'zqurilish materiallari" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan kafolatli ravishda yetkazib berilayapti[4]. Respublikamiz bo'yicha 2013-yilning yanvar — sentyabr oylarida 828 ta ishlab chiqarish obyektlari foydalanishga topshirilgan bo'lsa, shuning 234 tasi qurilish materiallari sohasiga to'g'ri keldi[4]. Bunda mahalliy lashtirish Dasturi doirasida hayotga tatbiq etilayotgan loyihalarining ahamiyati ayniqsa katta bo'ldi. O'sha yilning to'qqiz oyi ichida Dastur doirasida 30 turdagi mahsulotlar mahalliy lashtirildi.

O'zbekistonning qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida uy — joy qurilishini moliyalashtirish dinamikasi quyidagicha bo'ldi, jumladan, 2010-yilda — 428,9 milliard so'm, 2011-yil — 576,5 milliard so'm, 2012-yil — 906 milliard so'm, 2013-yil — 1,400 milliard so'm miqdorida uy — joy qurilishi moliyalashtirildi[5].

Surxondaryo viloyatida 2013 — 2015-yillarda raqobatbardosh nooziq — ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni barpo etish, mavjudlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash borasida umumiy qiymati 453167 ming AQSH dollari miqdoridagi 6 ta loyihani amalga oshirildi. Jumladan, ushbu dastur doirasida Boysun shahrining Obi mahallasida tadbirkor Jamshid O'rinov tomonidan "Boysun ustozoda" xususiy korxonasi tashkil etilib, bu yerda yiliga 2 mln. pogon metr hajmdagi alyuminiy eshik va romlar tayyorlash quvvatiga ega yangi liniya ishga tushirdi. Ushbu korxona namunaviy loyihalar bo'yicha yangi qishloqlar barpo etayotgan qurilish tashkilotlari buyurtmasi asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi[6].

Shuningdek, 2014-yili Sariosiyo tumanida "Grand Shifer Sharg'un" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 250 ming AQSH dollarlik ilg'or texnologik liniyani ishga tushirdi. Devorbop materiallar ishlab chiqarayotgan ushbu korxonada yana 20 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi[7].

2020-yil 1-mayda Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi Sardoba suv omborining o'pirilishi natijasida zarar ko'rgan tumanlar aholisiga suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish uchun

borgan Surxondaryolik quruvchilar Oqoltin tumanidagi “Ahillik” Mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) dagi Bobur nomli aholi punkti, “Navbahor” MFY va unga qarashli “Uchtom” aholi punktida zarar ko'rgan 147 ta xonadonni qurib, uy — joylar atrofida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishdi Qurilish ta'mirlash ishlariga viloyatda 34 ta yirik pudratchi va yordamchi qurilish tashkilotlarining 1000 nafarga yaqin ishchi — xodimlari jalb qilindi. Bundan tashqari, tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarining 200 nafardan ziyod xodimlari ham safarbar qilindi.

Viloyatning qator qurilish tashkilotlari 2011 — 2012-yillar qish mavsumida “Qamchiq” dovonida avtotransport vositalarining uzluksiz harakat — xavfsizligini ta'minlash ishlarida faol ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-iyuldagi “Qarshi shahri kelajakda qayta qurish rejasi va zamonaviy yo'l — transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish Dasturi to'g'risida” gi PQ — 2010, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida” gi PQ — 2264 — sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-maydagi “2015 — 2017-yillarda Surxondaryo viloyatining yo'l — transport, muhandislik — kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha chora — tadbirlar Dasturi to'g'risida” gi PQ — 2349 — sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-fevraldagi “Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora — tadbirlar to'g'risida” gi 31 — sonli qarori asosida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uy-joy va yo'l qurilishi ishlari jadallik bilan amalga oshirila boshladi. Jumladan, 2015-yilda O'zbekistonning Investitsiya obyektlarida 143,6 km. uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish rejasi amalga 149,7 km.ga bajarilib, 591,1 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi. Masalan, Surxondaryo viloyatidagi umumiy foydalanishdagi xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida 2015-yil davomida 45,1 mlrd. so'mlik qayta

qurish, 23,6 mlrd. so'mlik to'la ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari Termiz shahridagi Sulton Saodat, Taraqqiyot, Yoshlar, Afrosiyob, Baxt G'uncha ko'chalarini kapital ta'mirlash ishlarida 25,0 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi[8].

Bundan tashqari Ozarbayjon Respublikasining AKKORD kompaniyasi tomonidan M — 39 “Toshkent — Termiz” xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'lining 100 km qismida yo'l qurilish va 36 ta ko'priq qurilish ishlari amalga oshirildi. Surxondaryo viloyatida Investitsiya dasturlariga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 90,1 mlrd. so'mlik qurilish va qayta qurish ishlari amalga oshirildi va 1,3 km uzunlikdagi 1 ta obyekt foydalanishga topshirildi.

2016-yilda Surxondaryo viloyatining Angor, Termiz, Muzrabot, Sherobod, Boysun va Uzun tumanlaridagi xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatidagi yo'llarni zamonaviy talablar asosida 109 km., yo'l qurilish va 126 km., rekonstruksiya qilish ishlari hamda 10 ta ko'priq qurish ishlari amalga oshirildi.

2016-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi turar — joylar qurish bo'yicha 1048 ta uy — joylar, 24,9 km. ichimlik suvi va 28,7 km. gaz quvurlari, 30,2 km. elektr tarmoqlari hamda 25 km. ichki yo'llar, shuningdek 2017-yilda 1129 ta uy — joylar, 20,2 km. ichimlik suvi va 16,0 km. tabiiy gaz quvurlari, 22,1 km. elektr tarmoqlari hamda 15 km. ichki yo'llar belgilangan muddatda qurilib foydalanishga topshirildi[9].

Shuningdek, 40 ta maktab, 9 ta kollej, 39 ta bolalar sporti, 2 ta musiqa va san'at maktabi va 13 ta sog'liqni saqlash obyektlarini, yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qurilish ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-maydagi PQ — 2349 — sonli qarori bilan dasturning ijrosiga bevosita rahbarlik qildi. Dasturga asosan 2016-yilda 610 ta obyektlarda 719,4 mlrd. so'mga teng qurilish — montaj ishlari bajarildi. Jumladan, yo'l qurilishi bo'yicha 64 ta obyektlarda 165,2 mlrd. so'mlik rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlari, elektr energiya va gaz ta'minoti tizimlarini rekonstruksiya qilish va

modernizatsiyalash bo'yicha 52 ta obyektida 32,9 mlrd. so'm, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha 71 ta obyektida 19,5 mlrd. so'mlik, aloqa va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 4 ta obyektida 13,5 mlrd. so'mga teng qurilish — montaj ishlari bajarildi[10].

Termiz shahrida "San'at saroyi" majmuasini yangidan qurish bo'yicha 53,5 mlrd. so'm, "Arxeologiya muzeyi" ni rekonstruksiya qilish bo'yicha 4,8 mlrd. so'mga teng mablag'lar o'zlashtirildi. Bundan tashqari, 2016-yilda viloyatda 385 ta qurilish — pudrat tashkilotlari va 174 ta qurilish materiallari (beton plita ishlab chiqarish, yo'lga yotqiziladigan chorqirra toshlar (bruschatka), g'isht, shlakoblok, quduqlar (kolodes) va boshqa qurilish materiallari) ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, shu orqali 12832 ta ish o'rinlari yaratildi. 2016-yil yakuni bilan o'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,4 foizga o'sishiga erishildi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari hajmida kichik biznesning ulushi 39,7 foizdan 44,5 foizga ko'tarildi.

Viloyatni ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirish dasturiga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab — quvvatlash maqsadida 2016-yilda kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlariga 192,0 mlrd. so'm kreditlar ajratilib, jami 1825 ta loyihalar amalga oshirildi. Shundan, sanoat mollari ishlab chiqarish bo'yicha 390 ta, xizmat ko'rsatish bo'yicha 678 ta, qishloq xo'jaligi bo'yicha 757 ta loyihalar ishlab chiqarishga joriy etildi[11].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-maydagi "2015 — 2017-yillarda Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi 142 — sonli qarorining ijrosiga bevosita rahbarlik qildi. Qarorga ko'ra "2015 — 2017-yillarda Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi" bo'yicha umumiy qiymati 362,2 mln. AQSH dollariga teng 176 ta loyihani amalga oshirish va buning natijasida 9582 ta yangi ish o'rinlari tashkil etish ko'zda tutilgan bo'lib, 2016-yil yakuni bilan qiymati 145,6 mln.dollarlik 305 ta sanoat loyihalari ishga tushirilib, ushbu maqsadlarda

tijorat banklari tomonidan 84,0 mln. AQSH dollar kredit mablag'lari ajratilib, 4794 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-apreldagi PQ — 2873 — sonli qaroriga asosan viloyatdagi 102 ta ijtimoiy soha obyektlarida qurilish — ta'mirlash ishlari olib borilib, ushbu ishlarga 154,2 mlrd.so'm mablag' sarflangan. Jumladan, 48 ta umumta'lim maktablari, 23 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 16 ta kasb — hunar kollejlari va 15 ta sog'liqni saqlash obyektlari qurib bitkazilib, foydalanishga topshirildi[8].

Shuningdek Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrining Sheroziy ko'chasidan F.Xodjayev ko'chasigacha bo'lgan 5 km avtomobil yo'lida 7,6 mlrd. so'mlik, T.Baxodir, Nekuz va Sherozi ko'chalarida 3,7 km. da 10,2 mlrd. so'mlik, K.Yarashev ko'chasida 1,5 mlrd. so'mlik qayta qurish ishlari amalga oshirildi. A 380 "G'uzor — Buxoro — Nukus — Beynou" xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'lining 440 — 490 km.lar (50 km) V — 1 uchastkasida xorijiy kompaniya "GP Papenburg Baugesellschaft mbH" (Germaniya) (Shartnoma summasi 86,77 mln.doll.SSHA. 100 % ABR hisobidan) tomonidan bajarilgan yo'l qurilish ishlarida, 490 — 581 km. (91 km.) larida "POSCO E&C" (Koreya) (Shartnoma summasi 132,1 mln. AQSH doll.- 5,3 % ABR hisobidan va 94,7 % Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan) kompaniyasi va "O'zavtoyo'l" DAK tizimidagi mahalliy korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

2016-yilda Qashqadaryo viloyatidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida "Qarshi — Shahrisabz" yo'nalishidagi 4R79 "Qarshi — Chim — Chiroqchi — Shahrisabz" avtomobil yo'lining 0 — 4 km. qismida 4 km asfaltbeton qoplamali, 4 — 10 km. qismida 6 km sementobeton qoplamali yo'llar, M — 39 avtomobil yo'lining 1173 — 1184 km. Qismida 16,5 mlrd. so'mlik qurish ishlari amalga oshirilib, jami 54,1 mlrd. so'mlik sementobeton va asfaltbeton qoplamali yo'llar qurildi[12].

Janubiy hududlarda xizmat ko'rsatish va kommunal tizimining yangicha ish tartibiga o'tishi natijasida ijtimoiy sohada ko'plab muammolar yechimini topdi. Jumladan:

- aholining ish bilan bandlik masalasida qisman natijalarga erishildi;
- shahar va qishloq aholisining iqtisodiy ahvolini yaxshilash va daromadlarini ko'paytirish manbalari shakllana boshladi;
- ijtimoiy soha faoliyati turlarining kengayishi davlat byudjetiga kelib tushadigan tushumlarning oshishiga olib keldi;
- xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi shahar va qishloq aholisining turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga olib keladi[13].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). 2009–2020-yillar oralig'ida O'zbekistonning janubiy hududlarida qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu davr mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish bosqichi bo'ldi. O'rganilgan davrda amalga oshirilgan islohotlar janubiy hududlar qishloq aholisining farovonligini oshirish, hududiy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya tizimini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston ovozi. 2011-yil, 23-iyun, 75 — son, 3 b.
2. Xalq so'zi. 2011-yil, 14-iyun, 116 — son, 2 b.
3. Xalq so'zi. 2014-yil. 30-aprel, 83 — son.
4. Xalq so'zi. 2012-yil. 5-yanvar. 3 — son. 2 b.
5. Xalq so'zi. 2013-yil. 16-aprel. 72 — son.
6. Chag'oniyon. 2013-yil, 22-avgust, 33 — son.
7. Xalq so'zi. 2014-yil, 11-fevral. 29 — son.
8. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 468-bayonnoma. 48-varaq.
9. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 482-bayonnoma. 80-varaq.
10. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 481-bayonnoma. 85-varaq.
11. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 482-bayonnoma. 16-varaq.
12. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 468-bayonnoma. 48-varaq.
13. Qashqadaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. 652-bayonnoma. 116-128-varaqlar.
14. Ernazarov Sh.Yu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik korxonalaridan bandlik muammolari uni daf qilish yo'llari. (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. —Toshkent, 2001. — B. 110.